

KREDIT-MODUL TIZIMIDA LOYIHALASHTIRISH TEXNOLOGIYASI ASOSIDA NOFILOLOGIK YO'NALISH TALABALARINING INGLIZ TILIDAN MUSTAQIL TA'LIM OLISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedova Nodima Izzatullo qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti tayanch doktoranti.

Anotatsiya: Ushbu maqolaning maqsadi kredit-modul ta'lim tizimida nofilologik yo'nalish talabalarining ingliz tilidan mustaqil ta'limini loyihalashtirish texnologiyasi asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini bayon etadi. Maqolada loyihalashtirish texnologiyasining afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, metodni amalga oshirish bosqichlari, baholash vositalari va tavsiyalari keltirilgan. Umuman olganda, maqolada loyihalashtirish texnologiyasi va kredit -modul tizimining ta'lim sohasidagi integratsiyasi samarasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, loyihalashtirish texnologiyasi, nofilologik yo'nalish, ingliz tili, talaba o'z-o'zini boshqarish.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari oliy ta'lim tizimidan yangicha yondashuvni, yangi texnologiyalarni qo'llashni talab etmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi asta-sekin kredit modulli ta'lim tizimiga o'tmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. Misol sifatida mamlakatimizdagi xorijiy oliy o'quv yurtlari va respublikamizdagi universitetlarning ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga tadbiq qilgan holda olib borayotgan universitetlarini keltirish mumkin. Ushbu tajriba bosqichma-bosqich bir qator milliy oliy ta'lim muassasalarida joriy etilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.02.2018 yildagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli farmoniga muvofiq Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida (TATU) amalga oshirildi. 2018-2019 o'quv yilidan boshlab ta'limning kredit tizimiga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Yuqorida qayd etilganlardan tashqari, Respublika universitetlari, Sharqshunoslik universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Farg'ona politexnika instituti kabi universitetlar ta'limning kredit-modul tizimi bo'yicha ish boshlagan edi. Ushbu oliy o'quv yurtlarida ta'limning kredit tizimini joriy qilishning afzalliklaridan biri shundaki, u milliy malaka standartlarini to'ldiradi va qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida joriy etilayotgan kredit-modul tizimi ana shu ehtiyojlarga javob beruvchi samarali tizimdir. U talabalarga o'quv yuklamasini mustaqil rejalashtirish, o'zlashtirish darajasini baholash va individual ta'lim yo'lini tanlash imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Kredit-modul tizimi va mustaqil ta'lim talabalarining bilish, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nofilologik yo'nalish

talabalariga ingliz tilini o'rgatishda amaliy yo'naltirilgan, loyiha va loyihalashtirish yondashuvlarini uyg'unlashtirish – o'quv jarayonini individualazatsiyalash va talabaning o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin.

Ammo amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, ayniqsa nofilologik yo'nalish talabalarida mustaqil ta'limni samarali tashkil etish hali to'liq yo'lga qo'yilmagan. Talabalar ko'p hollarda tayyor bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanadi, o'z-o'zini rivojlantirish, izlanish va refleksiya qilish kompetensiyalariga to'liq ega emas. Shu sababli bu jarayonda loyihalashtirish texnologiyasini qo'llash mustaqil o'qish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyihalashtirish texnologiyasi talabalarga amaliy faoliyat, muammolarni hal etish, tanqidiy fikrlash va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Kredit-modul tizimi va loyihalashtirish texnologiyasi integratsiyasi o'quv jarayonini individual, faol va natijaga yo'naltirilgan tizimga aylantiradi.

Kredit-modul tizimi – bu xalqaro ta'lim amaliyotida keng qo'llaniladigan tizim bo'lib, u ta'lim jarayonini modullarga ajratish va har bir modul uchun kredit birligini ajratish tamoyiliga asoslanadi. Har bir kredit ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini ifodalaydi, bu eas talabaga o'zining mustaqil ta'lim faoliyatini samarali rejalashtirish imkonini beradi.

Loyihalashtirish texnologiyasi esa konstruktivizm nazariyasiga tayanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki talaba uni faol izlanish, tahlil va tajriba orqali egallaydi. Tomas loyihalashtirish texnologiyasini o'quv jarayonida real hayotiy muammolarni yechishga asoslangan, talaba markazli yodashuv sifatida tavsiflaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa loyihalashtirish texnologiyasining talabalarning tanqidiy fikrlash, kommunikativ va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalariga ijobiy ta'siri tasdiqlangan.

Yurtimizda ham bir qancha olimlar kredit-modul tizimini joriy etish jarayonida metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ta'kidlab, loyihalashtirish texnologiyasi kabi faol o'qitish texnologiyalarini joriy etish mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishni qayd etganlar.

Tadqiqot metodologiyasi kredit-modul tizimi va loyihalashtirish texnologiyasi integratsiyasini chuqur o'rganish, ularning o'zaro ta'sirini baholash hamda nofilologik yo'nalish talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan. Quyida to'rtta asosiy yondashuv qo'llanildi:

1. Nazariy tahlil. Nazariy tahlil jarayonida kredit-modul tizimining mazmuni, tamoyillari va pedagogik imkoniyatlari bo'yicha xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar o'rganildi. Shuningdek, loyihalashtirish texnologiyasining nazariy asoslari – konstruktivistik ta'lim modeli, faol o'rganish nazariyasi, metakognitiv yondashuvlar tahlil qilindi. Ushbu bosqichda asosiy e'tibor loyihalashtirish texnologiyasining mustaqil ta'limni faollashtirishdagi roli, talaba markazli ta'lim tizimlari bilan o'zaro aloqasi va baholash mezonlariga qaratildi.

2. Komparativ tahlil. Komparativ tahlilda an'anaviy o'qitish tizimi va kredit-modul tizimining o'zaro farqlari taqqoslandi. Ularning mustaqil ta'limni tashkil etishdagi samaradorligi, o'qituvchi va talaba rollarining transformatsiyasi, baholash mexanizmlari va

o'quv jarayonining moslashuvchanligi bo'yicha tahliliy jadval tuzildi. Natihalar shuni ko'rsatdiki, kredit-modul tizimi loyihalashtirish texnologiyasi bilan uyg'unlashganda, talabalar mustaqilligini oshiruvchi omillar kuchayadi, o'qituvchi esa nazoratchidan ko'ra yo'naltiruvchi(mentor, fasilitator) rolini bajaradi.

3. Amaliy tajriba. Tadqiqot doirasida nofilologik yo'nalish talabalari masalan, tarix yo'nalishi talabalari uchun ingliz tili fanida loyiha asosidagi mustaqil o'qitish sinov tariqasida joriy qilindi. Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, real hayotiy mavzularda, masalan, "Tarixiy joylarning madaniy merosdagi o'rni" mavzusida loyiha tayyorladilar. Loyihalar davomida talabalar mustaqil manbalar bilan ishladilar, ma'lumotlarni tahlil qildilar va yakunda taqdimot shaklida natihalarini himoya qildilar. Bu jarayon ularning til kompetensiyasini, muloqot madaniyatini va o'zini baholash qobiliyatini sezirarli darajada oshirdi.

4. Tizimli yondashuv. Tizimli yondashuv asosida mustaqil ta'lim jarayoni to'rtta komponentda tahlil qilindi: motivatsiya, rejalashtirish, ijro va refleksiya. Har bir komponent o'zaro bog'liq holda, ta'lim natijalarini shakllantiruvchi yagona tizim sifatida ko'rildi. Ushbu yondashuv talabani mustaqil faoliyatini nafaqat individual, balki ijtimoiy va kognitiv jihatdan ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tizimli tahlil loyihalashtirish texnologiyasining samaradorligini baholash, muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

Kredit-modul tizimida loyihalashtirish texnologiyasini qo'llagan holda mustaqil ta'limni tashkil etish bosqichlari quyidagicha amalga oshiriladi.

Rejalashtirish bosqichida har bir modul uchun o'quv maqsadlari va loyiha yo'nalishlari aniqlanadi. Loyihalar fanning amaliy jihatiga moslashtiriladi., masalan, tarix fanida-"Madaniy merosning turizmda o'rni", baholash va rubrikalar ishlab chiqiladi, talabalarga ma'lum qilinadi.

Resurslarni tayyorlash bosqichida elektron manbalar, maqolalar, videodarslar, virtual kutubxona resurslari jamlanadi. Talabalarga yo'riqnomalar, loyiha shablonlari va baholash kriteriylari beriladi. Mustaqil ta'lim uchun onlayn platformalarda. Moodle, Google Classroom da topshiriqlar joylashtiriladi.

Ijro ya'ni loyihani amalga oshirish bosqichida, talabalar guruhlarda yoki yakka tartibda loyiha usulida ishlaydilar. O'qituvchi mentor sifatida maslahat beradi va oraliq tahlillarni tashkil etadi. Har bir bosqichda talabalar faol refleksiya yozuvlari(learning journallarni)to'ldiradilar.


Baholash va refleksiya bosqichida loyiha natijalari rubrikalar asosida baholanadi(mazmun sifati, ijodkorlik, til kompetensiyasi, visual taqdimot). Yakuniy natijalar taqdimot shaklida himoya qilinadi. Talabalar o'z faoliyatini baholab, o'zlashtirishdagi o'sishni tahlil qiladilar.

Natijalarni umumlashtirish bosqichida, o'qituvchi va talabalar loyihaviy jarayonni tahlil qilib, samarali yondashuvlarni aniqlaydilar. Eng muvaffaqiyatli loyihalar keyingi o'quv yillarida namunaviy material sifatida qo'llaniladi.

Kredit-modul tizimi va loyihalashtirish texnologiyasi integratsiyasi talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu


yondashuv o'qitish jarayonida faol ishtirok etish, ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va refleksiya ko'nikmalarini shakllantiradi. Nofilologik yo'nalishlarda bu modelni joriy etish talabalarning nafaqat bilim, balki kasbiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Loyihalashtirish texnologiya bir qancha komponentlardan tarkib topgan. Ular quyidagicha.(1 rasmga qarang)



1- Rasm. Loyihalashtirish texnologiyasining komponentlari.

Kredit-modul tizimida loyihalashtirish texnologiyasidan foydalanib talabalar mustaqil ta'limini tashkil etganda an'anaviy ta'lim tizimiga qaraganda ta'lim sohasida bir qancha imkoniyatlar yuzaga keldi, xususan, talabalar o'zlashtirish darajasi, baholash tizimi talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarda yaqqol ko'zga tashlandi. Quyida loyihalashtirish texnologiyasi asosida va an'anaviy shaklda tashkil etilgan mustaqil ta'lim tahlili keltirilgan.(2 rasmga qarang)



2-Rasm. Loyihalashtirish texnologiyasi va an'anaviy ta'lim tizimining farqli jihatlari.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, loyihalashtirish texnologiyasi ta'lim sohasida bir qancha afzalliklarga ega. Quyidagi jadvalda esa loyihalashtirish texnologiyasining bir qancha afzalliklari sanab o'tilgan.(1 jadvalga qarang)

Afzalliklari	Izohlar
Talabaning mustaqil ishini aniq rejalashtirish	O'quv natijalari va vazifalar aniq beriladi.
Baholash shaffofligi	Vazifalarning murakablik darajasi va baholash mezonlari belgilangan
Talaba markazli yondashuv	Talaba tezligi va uslubiga mos ish oladi
Loyiha asosida real amaliy ko'nikmalar	Professional kontekstga yo'naltirilgan kontekslar
O'qituvchi va talabani monitoring qilish oson.	Progress izlanish va portolio

1-Jadval. Loyihalashtirish texnologiyasining afzalliklari.

XULOSA

Kredit-modul tizimida nofilologik yo'nalish talabalarining mustaqil ta'limini loyihalashtirish texnologiyasi asosida tashkil etish talabaning o'quv jarayonidagi faolligini, mas'uliyatini va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiya orqali o'quv natijalari aniq belgilanadi, topshiriqlar tizimlashtiriladi va baholashning shaffof tizimi yaratiladi. Natijada talaba o'z o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash va amaliy vazifalarni bajarish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

Shuningdek, loyihalashtirish texnologiyasi modul doirasida real hayotga yaqin bo'lgan amaliy faoliyatlarni tashkil etish orqali o'quv motivatsiyasini oshiradi. LMS platformalaridan foydalanish esa monitoring va baholashni yanada yanada samarali, tezkor

va tizimli qilish imkonini beradi. Biroq, bu texnologiyani muvaffaqiyatli joriy etish uchun o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, texnik infratuzilma va talabalar uchun aniq yo'riqnomalar zarur.

Umuman olganda, loyihalashtirish texnologiyasiga asoslangan kredit-modul tizimi nofilologik yo'nalishlarda mustaqil ta'limni tashkil etishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi va talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik yondashuvdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF–5847-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF–5847-son Farmoni.
3. Axmedova N. “Loyihalashtirish texnologiyasi asosida nofilologik yo'nalish talabalarining mustaqil ta'lim olish faoliyatini takomillashtirish”, “Til va adabiyot ta'limi” 31-32 betlar. 2024 y.
4. Dadakhonova Zulaiho, “The introduction of a credit-module system of education in Uzbekistan higher Educational institutions. THE INTRODUCTION OF A CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION IN UZBEKISTAN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS – тема научной статьи по наукам об образовании читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка
5. Mustafaeu U, Mustafayeva S, “Higher Education: advantages, problems and solutions of credit – module system” HIGHER EDUCATION: ADVANTAGES, PROBLEMS AND SOLUTIONS OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM – тема научной статьи по наукам об образовании читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка
6. Kredit-modul tizimiga o'tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik Xalq so'zi gazetasi ,Kredit-modul tizimiga o'tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik - Xalq so'zi
7. Tojiyev M, Ziyomuhamedov B, O'ralova M, Pedagogik texnologiya va pedagogic mahurat fanining o'quv mashg'ulotlarini loyihalash. “Tafakkur-bo'ston” Toshkent-2012.
8. Thomas, J.W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning.
9. Zhang, L. et al. (2023). A study of the impact of project-based learning on student outcomes.
10. Sánchez-García, R. (2025). Enhancing Project-Based Learning: A Framework for Implementation.